

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MELIBOYEV MIRAZAM FOZILJON O'G'LI

**POLIZ MAHSULOTLARINI KOMPLEKS QAYTA ISHLASH ORQALI
CHIQINDISIZ MAHSULOTLAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQISH**

**02.00.17 – “Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari”**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYA AVTOREFERATI**

Namangan - 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mudarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)

Content of the dissertation abstract of doctor (DSc)

Meliboyev Mirazam Foziljon o'g'li

Poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlash orqali chiqindisiz mahsulotlar olish texnologiyasini ishlab chiqish3

Мелибоев Миразам Фозилжон угли

Разработка технологии получения безотходной продукции путем комплексной переработки бахчевых культур.... 29

Meliboev Mirazam

Development of technology for obtaining waste-free products through complex processing of melon products.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works60

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

MELIBOYEV MIRAZAM FOZILJON O'G'LI

**POLIZ MAHSULOTLARINI KOMPLEKS QAYTA ISHLASH ORQALI
CHIQUINDISIZ MAHSULOTLAR OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB
CHIQUISH**

**02.00.17 – “Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta
ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari”**

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan - 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/T706 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.nammti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslaxatchi:

Ergashev Oybek Karimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yulchiyev Aslbek Baxtiyorbekovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Mahmudov Rafuqjon Amanovich
texnika fanlari doktori, professor

Sagdullayeva Dilafruz Saidakbarovna
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «12» iyul soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan davlat texnika universiteti, 3-bino, 1-qavat, Ilmiy kengash xonasi, 303-xona.

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ___ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi, 7. Tel.: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» ____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» ____ dagi №__ raqamli reestr bayonnomasi)

I.T. Shamshidinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, texnika fanlari doktori, professor

D.Sh. Sherqo‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, texnika fanlari doktori, professor

A.M.Xamdamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

Kirish (Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, sifatli oziq-ovqat ishlab chiqarish va xavfsizligini ta'minlashga bo'lgan talablar yildan yilga oshmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali poliz mahsulotlarini innovatsion qayta ishlash, sifatli, past harorat va chuqur vakuumda quritish davrini qisqartirish, muzlatish va kimyoviy moddalar bilan ishlov berish orqali dastlabki namlikni bug'latish, uzluksiz sublimatsion quritish texnologiyasini soddalashtirish va konvektiv quritish texnologiyasini takomillashtirish, keng assortimentli mahsulotlar olish va unumdorligini oshirish bo'yicha olib borilayotgan islohatlar dolzarb ahamiyatga ega.

Jahonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifatli va energiyatejamkor texnologiyalar asosida quritish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, dastlabki ishlov berish orqali asosiy namlikni yo'qotish, poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlash va kombinatsiyalangan quritish usullarini qo'llash bilan ozuqaviy qiymati yuqori, faol moddalar saqlagan, vitamin va mineral moddalarga boy funksional keng assortimentli quritilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni jadallashtirilgan texnika-texnologiyalarini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini konvektiv va sublimatsion usullarda quritish texnika-texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash salohiyatini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza, sifat ko'rsatkichi yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish»¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada sublimatsion va konvektiv quritishning issiqlik manbai hisoblanuvchi suv energiyasi va termoradiatsion issiqlik agenti mahsulotlarini volumetrik qizdirish, kombinatsion usulda energiya berishning ratsional rejimlarini asoslash, quritilgan mevalar ishlab chiqarish texnologiyalarini maqbullashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi №PF-60-sonli «Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2019-yil 29-iyuldagi PQ-4406-sonli «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PQ-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2018-yil 19-yanvardagi PQ-3484-sonli «Oziq-ovqat tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 26-apreldagi PQ-3680-sonli «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида» фармони

me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot ishlari respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitning muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Qovun va tarvuzni qayta ishlash orqali qandolat mahsulotlari, sharbatlar olish va quritish texnologiyasini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalari, xususan, Massachusetts Institute of Technology, Yale University (AQSH), Eurofins laboratories (Germaniya), Alfa Laval (Shvesiya), Universita di Torino (Italiya), Tokyo national university (Yaponiya), School of Food Science and Engineering (Xitoy), Oziq-ovqat xalqaro ilmiy tadqiqot instituti (VNIIF, RF), Kuban davlat texnologiya instituti (RF), poliz mahsulotlarini taxlil qilish va ularni qayta ishlashning istiqbollari Toshkent davlat texnika universitetida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

Jahonda poliz mahsulotlarni qayta ishlash texnologiyalari va jihozlarini takomillashtirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Qovoqni konvektiv quritish jarayoni va qurilmasini takomillashtirish bo'yicha (Belarus milliy texnika universiteti, Belarussiya); poliz mahsulotlarini birlamchi va ikkilamchi massasidan ajratish, bo'laklash va tarvuz mevalarini birlamchi qayta ishlash uskunalarini ishlab chiqilgan; (Muxtor avezov nomidagi Janubiy qozog'iston tadqiqot universiteti, Qozog'iston) bajarilgan dissertatsiyasida liofilizatsiya texnologiyasining eng muhim bosqichi sifatida birlamchi muzlatish bosqichini hisoblash uchun matematik modellashtirish usullari ko'rib chiqilgan. Liofilizatsiyadagi barcha namlikning 90% i yo'qotish vaqtida issiqlik va massa almashinish jarayonlarini hisoblash uchun matematik modellashtirish va optimal hisoblash usullari ishlab chiqilgan (Qozon davlat energetika universiteti, RF); qovunni birlamchi va ikkilamchi massasini qayta ishlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan; (Toshkent davlat-texnika instituti, O'zbekiston).

Dunyoda poliz mahsulotlarini qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi xomashyolarni qayta ishlashning texnologik parametrlarini qo'llanilish sohalarini aniqlash bo'yicha bir qator, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan presslash natijasida ekologik sof sharbatlar olish, tarvuz va qovoqni ikkilamchi presslangan massasi quritishning optimal texnologiyalarini ishlab chiqish orqali keng assortimentli mahsulot namunalari olish va ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Poliz mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha Wang, N.M., Shofian, A. A. Hamid, A.

² Диссертация мавзуси бўйича хорижий илмий тадқиқотлар шарҳи: <https://www.tu.edu.sa>; <https://english.snnu.edu.cn/>; <https://pb.edu.pl/>; <https://www.upv.es>; <https://unibuc.ro>; <https://sse.tulane.edu/chem>; <https://ineos.ac.ru>; <https://www.tu-chemnitz.de>; <https://www.mcgill.ca> ва бошқа манбалар асосида ишлаб чиқилган.

Osman, N. Saari, F. Anwar, M.S. Pak Dek, C. Pere, E. Rodier, O.A. Louisnard, C. Ginzburg, M.V. Podolskiy, Yu.I. Novikov, G.D.Ryutov, B.P. Kamovnikov, E. V. Blinskaya, S. V. Tishkov, K. V. Alekseyev, S. V. Minayev, O. Safarov, Q.O. Dodayev, X. Nurmuxammedov, A.A. Artiqov, D. Xikmatov, J.E. Safarov, A. Choriyev, O.Balabekov, A.A.Valnenko, M.N. Shaprov, D.V. Syomin, M.A. Sadovnikov, A.S.Ponassenko, Gudgov, L.N. Chaban, A.N. Syeplyayev, V.G. Abuzin, M.N. Shaprov, B.I. Malyukov, I.S. Egorov, Medvedkov E.B., Erenova B.E., Admayeva A.M., Sannikova T.A., P.M. Ovcharov va boshqalar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan.

Ular tomonidan poliz mahsulotlarini sublimatsion quritish yoki infraqizil nurlaridan foydalanib quritish usullaridan foydalanish faqatgina laboratoriyalarda ishlab chiqilgan va sanoatda qo'llanilmagan. Adabiyotlarda poliz mahsulotlarini konvektiv va sublimatsion usullarda quritish texnologiyasi haqidagi ko'p bo'lmagan ilmiy-tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda asosan issiqlik va massa uzatish jarayonini modellashtirish o'rganilgan.

Poliz mahsulotlarini birlamchi va ikkilamchi massasini konvektiv va sublimatsion quritish jarayonida askorbin va limon kislotasi bilan ishlov berish texnologiyasidan foydalanilgan va ushbu texnologiyaning afzalliklari ko'rsatilgan. Ushbu jarayon juda uzoq davom etganligi sababli, ko'plab biologik faol moddalar yo'qolishi va oqsil, uglevodlarning ma'lum bir qismi nativligini yo'qotadi. Bundan tashqari an'anaviy quyoshda quritilgan mevalar o'zlarining tabiiy xususiyatlariga qaytarish jarayoni ya'ni regidratatsiya darajasi uchun 2-3 kungacha vaqt sarflanishi mumkin. Bu esa oziq-ovqat mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini pastligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq IZ-202011018 «Meva va sabzavotlarni saqlash uchun energiyatejamkor yangi vakuum-sublimatsiyali quritish uskunasini yaratish» (2021-2022 yy) mavzusidagi innovatsion loyihasi, № 021/23 «Meva va sabzavotlarni saqlash uchun energiyatejamkor yangi vakuum-sublimatsiyali quritish uskunasini yaratish» (2023-2024-yy) mavzusidagi tijoratlashtirish loyixasi, № SA-32 «Meva – sabzavot va poliz mahsulotlarini po'stlog'idan tozalash qurilmasi va quritish texnologiyasini yaratish» (2024-2025-yy) mavzusidagi startap loyixa doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi poliz mahsulotlaridan qovoq va tarvuz xomashyolarini kompleks qayta ishlash va ikkilamchi mahsulotlaridan ratsional foydalanib, chiqindisiz texnologiyasini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

poliz mahsulotlarini biologik tavsifi va kimyoviy tarkibini tadqiq qilish;

kompleks va chiqindisiz qayta ishlash imkoni mavjud bo'lgan poliz mahsulotlarini tanlash va asoslash;

tanlangan poliz mahsulotlarini chuqur qayta ishlash uchun agrobiologik xususiyatlarini o'rganish;

qovoq va tarvuz xomashyolarini birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarini innovatsion qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish;

qovoq va tarvuzni chiqindisiz qayta ishlash texnologiyasini optimal ko'rsatkichlarini tanlash;

ishlab chiqilgan texnologiya asosida olingan birlamchi va ikkilamchi mahsulotlarni fizik-kimyoviy ko'rsatkichlarini tadqiq qilish;

qovoq va tarvuz xomashyolarini kompleks chiqindisiz qayta ishlash texnologiyasidan kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida o'ziga xos fizik-mexanik tavsifga ega bo'lgan mahalliy poliz mahsulotlari qovoq va tarvuzlar hamda ularning ikkilamchi mahsulotlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti poliz mahsulotlari hususan, tarvuz va qovoq mahsulotlarini birlamchi va ikkilamchi massasini konvektiv va sublimatsion usullarda quritish orqali keng assortimentli funksional mahsulotlar olish texnologiyasi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda xomashyo va quritilgan mahsulot xossalari aniqlashning umumqabul qilingan standart, fizik-kimyoviy, maxsus organoleptik va korrelyatsion-regression tahlil hamda eksperimentlarni statistik-matematik rejalashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba poliz mahsulotlaridan qovoq va tarvuz xomashyolarini kompleks chiqindisiz qayta ishlashda konvektiv va sublimatsion quritish usullari eng maqbuli ekanligi aniqlangan;

ilk bor qovoqni konvektiv va sublimatsion usullarda quritishdan oldin 5 %li askorbin kislotasi bilan ishlov berish orqali quritilgan mahsulot namunalari tarkibidagi vitamin va uglevodlarni regidratatsiya darajasi saqlanib qolishi isbotlangan;

ilk bor tarvuzni konvektiv va sublimatsion usullarda quritishdan oldin 4 %li limon kislotasi bilan ishlov berish orqali quritilgan mahsulot namunalari kimyoviy tarkibi, fizik-kimyoviy va organoleptik ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatmaganligi vizual usulda aniqlangan;

qovoq va tarvuzni birlamchi va ikkilamchi xomashyolarini sublimatsion quritishga nisbatan dastlabki ishlov berish orqali konvektiv usulda quritilgan mahsulot namunalariidagi vitamin miqdori maksimal darajada saqlanib qolishi isbotlangan;

qovoq va tarvuz xomashyolarini kompleks chiqindisiz innovatsion qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tarvuz va qovoqni innovatsion usulda quritish orqali organik kukun olishning regidratatsiya darajasi yuqori bo'lgan texnologiyasi ishlab chiqilgan;

poliz mahsulotlaridan olingan ikkilamchi xomashyolarni qayta ishlash orqali olingan organik kukunlar omixta emlarning ozuqaviy qiymatini 1,2 barobargacha oshirilishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

poliz mahsulotlari xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks qayta ishlash

bo'yicha ratsional tavsiyalar ishlab chiqilgan;

konvektiv va sublimatsion usulda poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlashning maqbul rejim va parametrlari aniqlangan;

poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlash orqali ikkilamchi xomashyolardan yuqori sifatli organik kukun olish texnologiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi eksperimental natijalarni olishda yuqori aniqlikdagi namlik analizatorlari, analitik tarozilardan foydalanilganligi, MATLAB 6.5, STATISTIKA 6.0 kabi zamonaviy kompyuter dasturlari, Windows XP, Microsoft, Excel kabi operatsion muhitlardan foydalanilgan, matematik modellarning aniqligi va ko'rilayotgan soha bo'yicha ularni baholash mezonlarining adekvatliligi, o'tkazilgan tadqiqotlarning ijobiy natijalari va ularning real ishlab chiqarish ma'lumotlari bilan qiyosiy tahliliga ko'ra asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qovoq va tarvuz mevalarini kompleks qayta ishlash orqali chiqindisiz mahsulotlar olish, konvektiv va sublimatsion issiqlik to'lqin uzunligi ta'siri, volumetrik qizdirish bilan maydon mahsulotlarning sifati va organoleptik ko'rsatkichlari me'yorlarga mos texnologiyalarini maqbullashtirish jarayonlarining optimal sharoitlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, tarvuz va qovoq mevasining xususiyatlarini hisobga olgan holda quritish jarayoni rejim parametrlarini tanlash, askorbin kislotasi bilan ishlov berish orqali mahsulotlardagi namlikni bug'ga aylantirish orqali konvektiv quritishning jadallashtirilgan kompleks qayta ishlash texnologiyalarini yaratishga hamda oziq-ovqat texnologiyasi va qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv jarayonida foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qovoqni kompleks qayta ishlash orqali chiqindisiz mahsulotlar olish texnologiyasi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2025 yil 6 yanvardagi 06-3/01-25-son ma'lumotnomasi). Natijada, qovoq mevasini quritish jarayon davomiyligini o'rtacha 5-6 soatgacha qisqartirish imkonini beradi;

tarvuzni kompleks qayta ishlash orqali chiqindisiz mahsulotlar olish texnologiyasi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2025 yil 6 yanvardagi 06-3/01-25-son ma'lumotnomasi). Natijada, tarvuzni va undan olingan ikkilamchi xomashyoni quritish jarayoni davomiyligini o'rtacha 6-7 soatgacha qisqartirish imkonini beradi;

tarvuz va qovoqni innovatsion usulda quritish orqali organik kukun olish texnologiyasi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan (O'zbekiston oziq-ovqat sanoati uyushmasining 2025 yil 6 yanvardagi 06-3/01-25-

son ma'lumotnomasi). Natijada, tarvuz va qovoqni birlamchi va ikkilamchi xomashyolarini quritish orqali tabiiy sof ingredient olish imkonini imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi va materiallari bo'yicha jami 33 ta ilmiy ishlar nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsifa etilgan ilmiy nashrlarda 17 ta, jumladan, 6 ta xorijiy jurnallarda maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 201 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «Poliz mahsulotlari turlari va qayta ishlash texnologiyasining istiqbollari xamda muammolari» deb nomlangan **birinchi bobida** O'zbekistonda poliz mahsulotlaridan jumladan tarvuz va qovoqlarni qayta ishlash holati va istiqbollari, O'zbekiston hududida keng tarqalgan navlari, poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlash usullari, xomashyolarni quritish jarayonida sifat ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar, qovoq va tarvuz mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar tizimlashtirildi. Poliz mahsulotlarini qayta ishlash usullari va qurilmalarining tadqiqot natijalari keltirilgan.

O'rganilgan tahliliy ma'lumotlar asosida poliz mahsulotlari, xususan qovoq va tarvuz mevalarini kompleks qayta ishlash jarayoni yetarlicha tadqiq etilmaganligi aniqlandi. Ushbu bob tahliliy xarakterga ega bo'lib, tadqiqotning asosiy konsepsiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiyaning «Poliz mahsulotlarini kompleks qayta ishlashda foydalanilgan qurilmalar tavsifi va tadqiqot usullari» deb nomlangan **ikkinchi bobida** tadqiqot uchun tanlangan obyektlari, xususan, tarvuz va qovoq mevasining fizik-kimyoviy xususiyatlari, organoleptik ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib, uni tanlashda mintaqamizda keng ko'lamda yetishtirilishi, qayta ishlash uchun mos navlari tanlangan. Shu bilan birga tadqiqot obyektlarining umumiy tavsifi, fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Tadqiqot usullari, quritish jarayoni bo'yicha tajribalar, quritilgan tarvuz va qovoq mahsulot namunalari fizik-kimyoviy parametrlariga qo'yiladigan talablar keltirilgan. Bunda qovoq va tarvuzni birlamchi ishlov berish usullari (yuvish, po'stlog'idan tozalash, birlamchi va ikkilamchi xomashyolarga ajratish), tadqiqot uchun zaruriy qurilmalar va ularning texnik karakteristikasi ochib berilgan.

Dissertatsiyaning «Poliz mahsulotlari qovoq va tarvuz xomashyolarini qayta ishlash texnologiyasini ilmiy-amaliy tadqiqot natijalari (laboratoriya natijalari muxokamasi)» deb nomlangan uchinchi bob qovoq konsentratini olish va uni qayta ishlash natijasida olingan ikkilamchi mahsulotlarni qayta ishlashga bag'ishlangan.

Poliz mahsulotlari ya'ni qovoqni qayta ishlash texnologiyasi va oziq-ovqat sanoati tarmog'ida istemolchilar qiymatini bugungi kundagi o'rni va axamiyati chuqur taxlil qilindi. Qovoqni qayta ishlash zarurati ularning boy biokimyoviy tarkibi hamda inson salomatligiga foydali xususiyatlari yuqoriligi bilan a'loxida ajralib turadi. Bugungi kunda qovoq, qovun va tarvuzlardan sharbatlar, nektarlar, desertlar, chipslar, mevali-jelleli marmeladlar, pastalar, kokteyllar, jemlar va quruq konsentratlar kabi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Quyida 1-rasmda qovoqni kompleks qayta ishlash texnologik liniyasi keltirilgan. Mualliflar tomonidan qovoq-mevali va qovoq konsentratlarini olish texnologiyasi ishlab chiqildi. Bu texnologiya inspeksiyalash, saralash, yuvish, maydalash, qaynatish va qadoqlash kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Qovoq-o'rik, qovoq-olxo'ri va qovoq konsentratlarining organoleptik ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Qovoq konsentratiga o'rik va olxo'ri qo'shilishi, shuningdek, retsepturadan shakar chiqarib tashlanishi qovoq konsentratlarining ozuqaviy qiymatini oshirilishiga erishiladi. Ushbu texnologiya mahalliy poliz mahsulotlarini qayta ishlash masalasini hal qilishga xizmat qiladi. Qovoq po'stlog'ining rangi esa, undagi xlorofill miqdori bilan bog'liq bo'lib, bu xususiyat mevaning pishib yetilish jarayonida o'zgaradi. Shu sababli, qovoq po'stining rangi orqali uning pishganlik darajasini aniqlash mumkin.

Qovoq konsentratini olish texnologiyasida dastlab yuvish, ikki qismga bo'laklash, asosiy massa (pyure) ni ajratib olish, maydalash, sharbatni ajratib olish, zich yopishqoq massa olinmaguncha qaynatishni o'z ichiga oladi. Qaynatish davri 4,5-5 soatni tashkil qiladi. Tarvuz konsentratini singari, qovoq konsentratini ham issiq holda sterilizatsiya qilingan shisha (1 litrli) idishlarga quyiladi, qopqog'i (tara) yopiladi va sterilizatsiya qilinadi. Keyin qadoqlangan idishlar 18-20°C gacha sovutiladi va salqin - qorong'i xona sharoitida saqlanadi (6-12 oy davomida).

2-usulda presslash jarayonida xosil bo'lgan ikkilamchi mezga massasiga ajratiladi. Presslangan mezga massasidan turli mahsulotlar olish mumkin (yogurt, qiyom, marmelad va xak.). Biz presslangan mezgani qayta ishlash uchun istemochilarning extiyoji yuqori bo'lgan quritilgan mahsulot namunalari bo'lganligi uchun quritish texnologiyasini tanladik. Quritish texnologiyalaridan konvektiv va sublimatsion usullarda amalga oshirildi. Quritishdan asosiy maqsad presslangan mezga massasini uzoq muddat saqlashning texnik-texnologik jixatdan birmuncha qiyinchiliklar keltirib chiqarishi va zamonaviy boshqariladigan (ventilyatsiyali va muzlatkichlar) saqlash jarayonida mahsulotlarni tannarxi ortib ketadi va yana bir asosiy xususiyatlardan biri bu mahsulotlar tarkibidagi kimyoviy moddalar (organoleptik ko'rsatkichlari) ni saqlab qolishi murakkab jarayon hisoblanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatdiki, qovoqni quritish va qayta ishlash uchun tanlangan navlaridan olib borilgan laboratoriya natijalaridan o'rtacha qiymat bo'lib "Ispan-73" navi xomashyosini optimal ko'rsatkich sifatida tanlab olindi, sababi birlamchi asosiy massasi, olingan konsentrat qiymati, po'stlog'i va ikkilamchi massasini konvektiv va sublimatsion usullarda quritildi. Quritish davri davomiyligida eng asosiy parametrlardan biri namlik massasi xisoblanadi. Namlik erkin va bog'langan namlikni kondensat xosil bo'lish jarayonlarini jadallashtirish uchun xomasholarni presslash orqali quritish davri davomiyligi 2-3 barabar qisqarishiga erishildi.

Quyida 3.1-jadvalda qovoq xomashyosining barcha tarkibiy qismlari tarkibidagi fizik ko'rsatkichlar miqdori keltirilgan.

3.1-jadval

Qovoq xomashyosining fizik ko'rsatkichlari

№	Namunalar	Ko'rsatkichlar			
		Po'stlog'i, %	Et qismi (ichki massa), %	Urug'i, %	Namlik, %
1.	Namuna-1	23,1	63,6	10,6	90,2
	Namuna-1	25,0	66,1	11,4	91,6
	Namuna-1	24,3	64,4	10,4	90,5
	O'rtacha taxlilij natija	25,0	66,1	11,4	91,6
2.	Namuna-1	24,5	61,2	9,6	89,8
	Namuna-1	22,3	65,1	11,8	91,1
	Namuna-1	24,3	64,4	10,4	90,7
	O'rtacha taxlilij natija	22,3	65,1	11,8	91,1
3.	Namuna-1	20,1	60,2	6,6	88,9
	Namuna-1	21,6	64,1	10,8	90,1
	Namuna-1	20,8	60,4	10,1	87,6
	O'rtacha taxlilij natija	21,6	64,1	10,8	90,1

Izoh: Tajribalar uchun qovoq mevasini "Qashg'ar-1644 (1)", "Ispan-73 (2)", "Shirintoy (3)" navlaridan foydalanildi.

Qovoqni kompleks qayta ishlash bugungi kundagi O'zbekiston oziq-ovqat sanoati tasarrufida faoliyat yuritayotgan yirik va kichik xajmli ishlab chiqarish korxonalarida ishlab turgan zamonaviy qurilma va jixozlarning ayrim texnologik parametrlarida bir nechta omillar va muammolar yuzaga kelmoqda ya'ni poliz mahsulotlari shuningdek, qovoqni kompleks qayta ishlash texnologiyasi mavjud emasligi va respublikamiz sharoitida istemolchilarning talab va extiyojlari kam bo'lganligi, mavsum davomida yetishtirilayotgan xomashyolarning 35-40 % qismi

ekin maydonlarida va savdo shaxobchalarida nes nobud bo'lishi statistik ma'lumotlar asosida aniqlandi. Xomashyolarni nes-nobud qilmasdan bir nechta sanoat tarmoqlariga yo'naltirish uchun biz qovoqni ikki xil shaklda qayta ishlashni maqsad qilib oldik; 1- usuda xomashyo asosiy massasining ichki qismini presslab sharbatini siqib olingandan keyingi massasi va ikkilamchi po'stloq qismidan funksional mahsulotlar assortimenti ustida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida chiqindisiz mahsulotlar olish uchun ikkilamchi po'stlog'ini xam quritish texnologiyasi ishlab chiqildi.

Muzlatib quritish uchun kesish o'lchami mahsulot namunalari shakliga qarab optimal haroratlar quyidagicha, qovoq uchun (turiga qarab) - 15-35⁰C ni tashkil qiladi.

Qovoqni konvektiv quritish uchun 90-105⁰C dan past bo'lmagan haroratda davomiyligi ta'minlanadi va bosimni atmosferaga tushirish, sublimatsion usulda quritish va kislorodsiz muhitda qadoqlash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda issiqlik agenti xaroratini o'zgartirish qolgan namlikni bug'lanishiga va qovoqning hajmini kengaytirishiga olib keladi, quritilgan mahsulot namunalari kislorod bilan reaksiya qilmaslik esa oksidlanish jarayonini sekinlashtirib, mahsulotlarni uzoq muddat saqlashga imkon beradi.

Vakuimli quritish tayyor mahsulotlar tarkibidagi namlikni sifat ko'rsatkichlari va strukturasi saqlagan xolda suv bug'latiladi, chunki quritish jarayoni atmosfera sharoitlariga qaraganda pastroq haroratda amalga oshiriladi. Vakuum yordamida quritishda mahsulot tarkibidagi namlikning bug'lanish tezligi ortadi, chunki u mahsulot yuzasida va uning atrofidagi kamera ichida xosil bo'lgan suv bug'lari tashqariga chiqishini faollashtiradi. Ushbu texnologiyaning samaradorligi, shuningdek, ajralib chiqayotgan issiq nam havo bilan issiqlik agentlarini yo'qotilishining yo'qligi tufayli ham ortadi. Vakuum yordamida quritish vaqtida namlikning bug'lanishi uchun issiqlik ko'pincha kontakt orqali va askorbin kislotasi bilan ishlov berish orqali mahsulot tarkibidagi namlikni kondensat xosil bo'lish jarayonini jadallashtiradi.

Sublimatsion usulda quritishda dastlab mahsulot tarkibidagi namlik miqdori 90 % ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 10⁰C haroratda 4 soat davomida 75 % ga, 30⁰C haroratda 12 soat davomida 20 % ga, 40⁰C haroratda 13 soat davomida quritilgan qovoq namunalari namlik miqdori 7-8% ni tashkil qildi.

Konvektiv usulda quritishda mahsulot tarkibidagi namlik miqdori 90 % ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 85⁰C haroratda 1 soat davomida 65 % ga, 90⁰C haroratda 2 soat davomida 25 % ga, 100⁰C haroratda 4 soat davomida quritilgan ikkilamchi xomashyo massa namlik miqdori esa 8% ni tashkil qildi. Natijalar laboratoriya tahlillari bir necha bor olingandan so'ng o'rtacha qiymat bo'lib, tahlillar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, konvektiv usul quritish davrining qisqartirishi va buning evaziga energiya sarfining kamayishini ta'minlaydi. Bunda quritilgan qovoq ikkilamchi massasi xomashyo namunalari an'anaviy sublimatsion usulda quritilgan mahsulotlar bilan solishtirilganida o'zlarining organoleptik ko'rsatkichlarini saqlab qolganligi aniqlangan. Bu esa o'z navbatida mahsulotlarni sublimatsion quritishda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va quritish davrini

kamaytirish maqsadida konvektiv quritish usulidan foydalanish orqali yuqori samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi.

Qurilgan mevalarning sifat ko'rsatkichlari GOST 32065-2013 da belgilangan organoleptik va fizik-kimyoviy talablar orqali aniqlandi.

Qurilgan mevalardagi talab qilinadigan namlik miqdori GOST bo'yicha 12% dan oshmasligi kerak (1 yilgacha saqlanadigan quritilgan qovoq ikkilamchi xomashyosi uchun). Bu ko'rsatkich sublimatsion usulda quritilgan namunalarga nisbatan 7-8% ni tashkil qiladi.

Qovoq namunalarini quritishning kinetik bog'lanish chiziqlari bilan quritish kinetikasi keltirilgan. Qovoq namunalarini quritish tezligini o'zgarishining konvektiv hamda an'anaviy sublimatsion usulda quritilgan namunalar bilan solishtirilgan.

Qovoq ikkilamchi namunasi quritish kinetikasi keltirilgan bo'lib, unda konvektiv quritish va sublimatsion quritish usullarida olingan natijalar solishtirilgan. Qovoqni quritishda quritish 2 ta quritish kamerasida tadqiqot olib borilganda issiqlik agenti suv issiqlik energiyasi o'rniga termoradiatsion issiqlik agenti ta'sir ko'rsatkichlari orqali quritish tezligini sublimatsion quritish usulda quritishga nisbatan 2-3 barobargacha qisqartirishga erishiladi.

O'tkazilgan tajribalar tahlili ko'rsatganidek, qovoqni ikkilamchi po'stlog'i dastlab konvektiv quritish jarayoni taxminan 6-7 soatgacha qisqartirish va energiya sarfining iqtisod qilish imkonini beradi.

Oziq-ovqat xom-ashyo namunalarining quritish texnologiyasini takomillashtirishning vazifasi ma'lum bir organoleptik, fizik-kimyoviy va tuzilish-mexanik ko'rsatkichlarga ega bo'lgan yuqori sifatli mahsulot olish maqsadida quritilishi kerak bo'lgan materialda boruvchi jarayonlarni boshqarishdan iborat. Qurilayotgan ob'ektdan namlikni fizik-kimyoviy bog'langan namlikni chiqarishda, ob'ekt xossalarini o'rganish, texnologik jarayon parametrlarining ilmiy asoslash asosiy vazifa sanaladi.

Qovoqni birlamchi xomashyosini presslash natijasida xosil bo'lgan ikkilamchi massasini konvektiv va sublimatsion usullarda quritish natijasida olingan paroshok (kukun) namunalari kimyoviy tarkibi va organoleptik ko'rsatkichlari taxlil qilindi.

Tadqiqotlar davomida tanlangan qovoqning birlamchi va ikkilamchi massa namunalarini texnologik qayta ishlash jarayonida eng kam o'zgarishga uchragan qismi kimyoviy moddalar bilan ishlov berilmagan qismi ekanligi aniqlandi. Bunda, ishlov berilgan xomashyolarning tashqi ko'rinishida, meva turli shaklda, asosan o'ziga xos rang va hidga ega, tuzilishi juda zich, shirin va nordon ta'mi va xushbo'yligi solishtirildi.


Quyida 3-jadvalda quritilgan qovoq ikkilamchi (kukun) massasining ozuqaviy qiymati keltirilgan.

Bu xususiyatlar Namangan muhandislik-texnologiya instituti oziq-ovqat texnologiyasi tajriba sinov laboratoriyasida o'rganilib oziq-ovqat sanoatiga istemol va qayta ishlash uchun maqbulligi eksperimental yo'l bilan aniqlandi.

Quritilgan qovoq presslangan massasining ikkilamchi (kukun) namunalarining ozuqaviy qiymati (100 gr xomashyoga nisbatan)

Mahsulot Nomi	Oqsil, g	Uglevod, g	Suv, g	Vitamin, mg				Kalloriyasi, kkal/kDj
				C	V4	VE	V3	
Quritilgan Qovoq	1,0	6,5	5,0	6,4	7,7	0,9	0,4	26/1012

Quyida 2-rasmda qovoq namunalaridagi C vitaminining quruq moddadagi massa ulushini quritish davri bo'yicha o'zgarishi keltirilgan.



2-rasm. Qovoq namunalaridagi C vitaminining quruq moddadagi massa ulushini quritish davri bo'yicha o'zgarishi


2-rasmda ko'rinib turibdiki bu yerda tadqiqot ob'ekti (qovoq) tarkibidagi C vitamini ya'ni askorbin kislotasi bilan ishlov berib 2 ta usuldagi quritish kamerasida tadqiqot olib borildi. Sublimatsion usulda quritishda dastlab qovoq tarkibidagi askorbin kislotasini dastlabki tarkibi 100 mg% mahsulotda 6,6 mg% ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 5 soatda 25⁰C haroratda 6,4 mg% va 13 soatda esa 35⁰C haroratda ushbu ko'rsatkich 6,1 mg% ni tashkil qildi. Konvektiv quritish usulida askorbin kislotasini dastlabki tarkibi 100 gr mahsulotda 6,6 mg% ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 3 soatda 90⁰C haroratda 6,3 mg% va 4 soatda esa 100⁰C haroratda ushbu ko'rsatkich 5,8 mg% ni tashkil qildi. Ya'ni natijalarni tahlil qilishda standart talablarga muvofiq sublimatsion quritish usuli konvektiv quritish usulda quritilganda qisman kamayishi konvektiv usulda quritishda jarayonning so'nggi soatlarida 4 soatda 5,8 mg% ga yetdi. Albatta sublimatsion quritish jarayonida issiqlik agent vazifasini kamera ichida o'rnatilgan tenlar bajargani hisobiga (kontaktli quritish) mahsulot tarkibida saqlanib qolgan vitamin C miqdori biroz yuqoriroq bo'lib 13 soatdan keyin 6.1 mg% qolgan aniqlandi.

Tadqiq qilinayotgan qovoq navlarining konvektiv va sublimatsion quritilgandan so'ng tarkibidagi askorbin kislotaning miqdori keltirilgan (4-jadval).

Qovoq namunalaridagi askorbin kislotasi miqdorlari

№	Navning nomi	Askorbin kislotaning miqdori, mg/100 g		
		Qovoq	Sublimatsion quritilgan qovoq	Konvektiv quritilgan qovoq
1	“Qashg’ar 1644”	6,4	5,7	5,1
2	“Ispan-73”	6,6	6,1	5,8
3	“Shirintoy”	6,1	5,5	5,0

3-rasmda 13 soat davomida sublimatsion usulda quritilgan hamda konvektiv usulda 4 soat davomida quritilgan qovoq namunalarida qandlar miqdorining o'zgarishini tavsifi keltirilgan.



3-rasm. Qovoq namunalarida qandlarning quruq moddada massa ulushining quritish davri bo'yicha o'zgarishi

3-rasmda keltirilgan qovoq namunalarini sublimatsion quritish va konvektiv quritish kameralarida o'tkazilgan tadqiqotlarda mahsulot tarkibidagi (glyukoza, fruktoza va saharoza) qand miqdori 100 gr mahsulotda dastlabki miqdori 6,8 mg% ni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich sublimatsion quritish kamerasida o'tkazilgan tadqiqotlarda 5 soatda 25°C haroratda 6,7 mg% ni, 8 soatda 30°C haroratda 6,5 mg% ni va quritishning so'nggi 13 soatda, soatlarida ushbu ko'rsatkich 40°C haroratda 6,4 mg% ni tashkil qildi. Konvektiv quritish kamerasida o'tkazilgan tadqiqotlarda 2 soatda 85°C haroratda 6,5 mg% ni, 3 soatda 90°C haroratda 6,2 mg% ni va quritishning so'nggi 4 soatda soatlarida ushbu ko'rsatkich 100°C haroratda 5,9 mg% ni tashkil qildi.


Grafiklarda sublimatsion usulda quritilgan qovoq namunalaridagi qandlarning konsentratsiyasi nativ saqlanishi kuzatildi va boshlang'ich ko'rsatkich bilan bir xil. Konvektiv quritish usulida quritilgan qovoq namunalaridagi qandlarning konsentratsiyasida juda kam 0.6g/100 g miqdorda kamaygani aniqlandi. Bu qovoq namunalaridagi qandlar termoradiatsiya ta'sirida juda kam miqdorda melonoidin

jarayoniga uchraganidan dalolat beradi.

Hozirda regidratatsiya koeffitsienti quritilgan mahsulotlar uchun muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Quruq namunalar uchun regidratatsiya jarayoniga nisbatan yuqorida tavsiflangani kabi baho berildi. Regidratatsiya vaqtida tiklanish darajasi quritishning turli sharoitlari, yakuniy namlik miqdori va boshqa omillarga bog'liq.

Quritilgan qovoq mahsulot namunalarida regidratatsiya darajasi xomashyolarni shakli va xajmidan kelib chiqib turli vaqt mobaynida davom etadi. Bo'laklangan (paraxasimon, kubiksimon va ustunchasimon) shakllarda konvektiv va sublimatsion usullarda quritilgan mahsulot namunalari (30-65) minut, presslash orqali olingan mezga massasini konvektiv va sublimatsion quritish orqali olingan kukuni (paroshok) (25-30) minut vaqt mobaynida namlikni yutilish darajasi 84-87 % ni tashkil qildi.

4-rasmda ikki usulda quritilgan qovoq namunalarining regidratatsiya darajasi nisbatlari grafigi tasvirlangan.



4-rasm. Quritilgan qovoq namunalari regidratatsiyasi grafigi

Ko'rinib turibdiki o'tkazilgan tadqiqotlarda quritilgan qovoq namunalari tarkibidagi namlikni qayta o'zlashtirishi 2 usulda ya'ni konvektiv va sublimatsion usullarda tahlil qilindi. Mahsulot namunalari tarkibidagi dastlabki miqdori 91 % ga nisbatan solishtirilganda sublimatsion usulda quritishda 30 minutda 40 % ni, 40 minutda 65 % ni, 65 minutda ushbu ko'rsatkich 89 % ni tashkil qildi. Konvektiv usulda quritishda 30 minutda 38 % ni, 40 minutda 61 % ni, 65 minutda esa ushbu ko'rsatkich 85 % ni tashkil qildi. Ikki usulda olib borilgan tadqiqotlarda dastlabki mahsulot tarkibiga namlikning yutish ko'rsatkichlari standart talablariga javob berishi va an'anaviy tenlarni mahsulotlarga ta'sir etishi natijasida sublimatsion usulga nisbatan konvektiv usulda 4 % kamayishi kuzatildi.

Regidratatsiya jarayoni natijalari deyarli bir xilda bo'lib, konvektiv quritish jarayonidan keyin qovoq namunalarini qayta tiklanish jarayoni sublimatsion usulda quritilgan namunalar bilan deyarli bir xil bo'lishi aniqlangan.

Dissertatsiyaning «**Qovoq va tarvuzni quritishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish**» deb nomlangan **to'rtinchi bobida** tarvuz konsentratini olish texnologiyasi, qayta ishlashdan hosil bo'lgan ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash usullari, tarvuz konsentratsiyasini kimyoviy va organoleptik ko'rsatkichlari (regidratatsiya jarayoni) ning tahlili keltirilgan.

Quyida 5-rasmda keltirilgan texnologik liniya orqali tarvuzni birlamchi asosiy massasidan presslash natijasida olingan konsentratsiyasi kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati tahlil qilingan.

Poliz mahsulotlari asosan yangi holda birlamchi massasi iste'mol qilinadi va istemolchilardan qolgan ikkilamchi xomashyo chiqindilari chorvachilikda yem-xashak uchun, tibbiyot sanoatida esa shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan konsentratsiyali ichimlik sifatida qo'llaniladi.

Ma'lumki respublikamizda yetishtirilayotgan poliz mahsulotlarini qayta ishlash orqali tabiiy va shifobaxsh mahsulotlar olish dolzarb masalalarga va bir nechta omillarga (organoleptik ko'rsatkichlarini saqlash, sifat ko'rsatkichlarini ta'sir etayotgan issiqlik agentlari va texnologik parametrlarni noto'g'ri tanlash) bog'liq.

Tarvuzni qayta ishlash biokimyoviy tarkibi va inson organizmiga shifobaxsh ta'siri bilan bog'liq. Tarvuzdan sharbatlar, nektarlar, disertlar, meva-jeleli marmeladlar, pastalar, kokteyllar, murabbo, quruq konsentratlar kabi mahsulotlar assortimentini olish mumkinligi aniqlangan. Ushbu texnologiyada mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan tarvuz konsentratlarini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Tarvuzni birlamchi massasi konsentratlarini olish texnologiyasi quyidagi texnologik jarayonlarni o'z ichiga oladi: qabul qilish, saralash, yuvish, birlamchi va ikkilamchi massasini ajratish, tozalash, maydalash, issiqlik agentlari bilan ishlov beriladi (qaynatish), qadoqlanadi.

Tarvuz konsentratini olish texnologiyasi yuvish, ikki qismga bo'lish, pyureni ajratib olish, maydalash, sharbatni ajratib olish, zich yopishqoq massa olinmaguncha qaynatishni o'z ichiga oladi. Qaynatish davomiyligi 4,5-5 soat davomida amalga oshiriladi. Qovun konsentratini singari, tarvuz konsentratini ham issiq holda sterilizatsiya qilingan shisha bankalarga solinadi, yopiladi va sterilizatsiya qilinadi. Keyin bankalar 18-20°C gacha sovutiladi va salqin va qorong'i bo'lgan omborlarda saqlanadi.

Tarvuz konsentratsiyasining tarkibiga o'rik va olxo'ri xomashyosi qo'shilishi, shuningdek, retsepturada shakar yo'qligi tarvuz konsentratlarining ozuqaviy qiymatini oshiradi. Olingan mevali va tarvuz konsentratlari oziq-ovqat sanoati konditer mahsulotlari, umumiy ovqatlanish, konserva mahsulotlari ishlab chiqarishda va boshqa sanoat tarmoqlarida qo'llanilishi mumkin.

Tarvuzni ikkilamchi massasini ichki va tashqi qobig'ini nes-nobud qilmasdan qayta ishlash orqali oziqaviy qiymati yuqori oziq-ovqat, farmatsevtik mahsulotlar olinadi, xususan tabiiy sof ichimliklar, bolalar ingredientlari va qandolat mahsulotlari assortimenti oshirilishiga va kelajak avlodni sog'lom turmush tarzini ta'minlashga erishiladi.

Quyida 5-rasmda tarvuzni kompleks qayta ishlashning texnologik liniyasi keltirilgan.

Tarvuzni po'stlog'ini ichki va ustki qobig'i presslangan xomashyosini quritish uchun kesish o'lchamlari konvektiv usulda quritish uchun xarorat ikki xil parametrdan berildi, turli shakllarda bo'laklangan xomashyo namunalari dastlab past xaroratda (85-90°C da, 5-6 soat) issiqlik agenti ta'sir ettiriladi, so'ngra presslangan mezga massasiga yuqori xaroratli (105-110°C da, 3-4 soat) issiqlik agenti tasir ko'rsatish orqali olib borildi, sababi namlikni bug'latish darajasi xomashyoning shakli va xajmidan kelib chiqib olib borildi. Mahsulot namunalari shakliga qarab optimal haroratlar quyidagicha, tarvuz uchun (turiga qarab) 85-100°C ni tashkil qiladi.

Tarvuzni ikkilamchi massasi (po'stlog'i) ni kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymati quyida 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

Tarvuz sharbatining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Tajriba namunalari			O'rtacha taxlil natija
			Namuna -1	Namuna-2	Namuna -3	
1	Siqilgan massa miqdori (quyqa), %	%	58,6	64,6	61,2	64,6
2	Ph miqdori	-	8,9	9,4	8,7	9,4
3	Quruq modda miqdori	%	6	7,3	6,1	7,3
4	Qandiligi	%	6,5	6,7	6,1	6,7

Tarvuzni ichki po'stlog'i va po'stlog'i (qobig'i)ni presslab, qirg'ichlab yoki bo'laklab sublimatsion quritish qurilmasida xarorat ikki xil parametrdan berildi, turli shakllarda bo'laklangan xomashyo namunalari dastlab past xaroratda (10-30°C da, 8-11 soat) issiqlik agenti ta'sir ettiriladi, so'ngra presslangan mezga massasiga yuqori xaroratli (10-35°C da, 11-13 soat) issiqlik (suv) agenti tasir ko'rsatish orqali olib borildi, sababi namlikni bug'latish darajasi xomashyoning shakli va xajmidan kelib chiqib olib borildi. Mahsulot namunalari shakliga qarab optimal haroratlar quyidagicha, tarvuz uchun (turiga qarab) 30-35°C ni tashkil qiladi.

Mahsulotning turli qalinlikda quritish harorati har xil bo'lib: eng yuqori issiqlik agentini qo'llash boshlang'ich davrda, eng past xarorat quritish davri davomiyligi yakunlanganda amalga oshiriladi. Issiqlik xarorati ko'pincha suv bug'larini bug'latish uchun uning harorati 35-40°C dan yuqori xaroratda quritiladi, shuning uchun issiqlik mahsulot xujayralari qizib ketish sodir bo'ladi. Olingan quruq mahsulotlarning eruvchanlik darajasi 80-85% ni tashkil qiladi.

Vakuimli quritish tayyor mahsulotlar tarkibidagi namlikni sifat ko'rsatkichlari va strukturasi saqlagan xolda suv bug'latiladi, chunki quritish jarayoni atmosfera sharoitlariga qaraganda pastroq haroratda amalga oshiriladi. Vakuum yordamida quritishda mahsulot tarkibidagi namlikning bug'lanish tezligi ortadi, chunki u mahsulot yuzasida va uning atrofidagi kameradagi suv bug'lari tashqariga chiqishi tezlashadi. Ushbu texnologiyaning samaradorligi, shuningdek, chiqadigan havo bilan issiqlik yo'qotilishining yo'qligi tufayli ham ortadi. Maxalliy sharoitda tarvuzning pichoq yordamida dumchasi va bo'yni qirqiladi sanoat ishlab chiqarish korxonalarida maxsus kesish mashinalarida po'stidan tozalanadi va standartga muvofiq 8 xil usulda sm va mm o'lchamlarda kesiladi. Tozalangan tarvuzni ikkilamchi massasi yuvib, inspeksiyalab, 4-6 mm qalinlikda to'rtburchak holida kesiladi va 0,3-0,5% li askorbin kislota eritmasida 3-5 minut davomida ishlov beriladi. So'ngra sirqitilib padnoslarga solinib quritish shkafiga joylashtiriladi va 4-5 soat davomida 95-110°C haroratda quritiladi.

Tarvuz mahsulotlari tabiiy usulda quritilmaydi va tavsiya etilmaydi sababi mahsulot tarkibida namlik miqdori ko'p bo'lishi va mahsulotlarni po'st xujayra qismi murakkab birikkanligi sababli tayyor istemolbob va sifatli mahsulot olish murakkab hisoblanadi.

Quritish jarayoni har bir mahsulot uchun 3 martadan laboratoriya sharoitida tajribalar o'tkaziladi va quritish jarayoni vaqt mobaynida mahsulotlardagi o'zgarishlar bir-biriga taqqoslab ko'riladi.

Tarvuzni birlamchi va ikkilamchi po'stlog'ining ichki qismini askorbin kislota bilan ishlov berilganda ranggi va strukturasi yaxshi saqlanadi va ishlov berilgan mahsulot namunalari issiqlik agentlariga yuqori darajada bardosh berishi aniqlangan, bundan tashqari ikkilamchi xomashyo 2 xil usulda ishlov berib qayta ishlandi;

1-usulda xomashyolar mexanik usulda yani dastlab xomashyolar turli shakllarga bo'laklanib askorbin kislota bilan ishlov berib so'ngra muzlatiladi va vakuum-sublimatsion quritish kamerasiga quritish uchun joylashtiriladi.

Xomashyo namunalari askorbin kislota 0,3-0,5% li, 0,2-0,4% li limon kislota eritmalariga botirib yoki purkash orqali amalga oshiriladi.

